Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 494.375:371.3
ORCID: 0009-0001-0964-5345

ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Kenjayeva Muxayyo Abdumurodovna
Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: kenjayevamuhayyo77@gmail.com.

Annotatsiya. Bugungi kunda axborot texnologiya imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish dolzarb masalalaradan biri hisoblanmoqda. Ushbu maqolada lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalardan unumli foydalanish, multimedia ilovalarining afzalliklari hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish jihatlari, o'qitishning o'yinli shakllari va mediatexnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, dars mashg'ulotlarida o'quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida o'quvchilarga namoyish etishning qulayliklari, multimedianing amaliyotdagi ish tartibi, haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, multimedia kompyuter texnologiyasining turli xildagi ko`rinishlari - matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va magnit va optik disklar, audio va videolenta axborotdan foydalanish xususiyatlari 5-sinf "Ona tili" darsligida berilgan mavzular va mashqlar misolida namunalar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda multimedia texnologiyalarining samarali natijalari internet-servislar, internet-resurslar, grafik fayllar, multimedia taqdimotlari kabi elektron-didaktik vositalarni qo'llash jarayonida namoyon bo'lishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, lingvistik kompetensiya, multimedia, audio, video, matn, grafika va animatsiya, kompyuter, saqlash, uzatish, videoma'lumotlar, mustqail fikrlash, mashq, internet-servis, grafik fayllar, multimedia taqdimotlari, elektron-didaktik vositalar, o'quv materiali.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Одним из актуальных вопросов современного образования является эффективное использование информационных технологий для повышения качества обучения и развития самостоятельного мышления у учащихся. В данной статье рассматриваются возможности применения информационных технологий в развитии языковых компетенций, а также преимущества мультимедийных приложений, оказывающих положительное влияние на образовательный процесс. Особое внимание уделяется применению игровых форм обучения и медиатехнологий, а также использованию учебных заданий с мультимедийными средствами. Учащиеся знакомятся с удобством представления материала и практическими аспектами работы с мультимедийными ресурсами.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

В качестве примеров тем и упражнений, представленных в учебнике для 5-го класса «Родной язык», рассматриваются различные формы мультимедийных технологий: текст, графика, рисунок, звук, анимация и видео. Особенности использования информации на магнитных и оптических дисках, а также на аудио- и видеокассетах также подчеркиваются.

Кроме того, статья раскрывает результаты, полученные при применении электронных дидактических средств, таких как интернет-сервисы, интернет-ресурсы, графические файлы и мультимедийные презентации, которые значительно повышают эффективность учебного процесса.

Ключевые слова: информационные технологии, языковая компетенция, мультимедиа, аудио, видео, текст, графика и анимация, компьютер, хранение, передача, видеоданные, самостоятельное мышление, упражнение, интернет-сервис, графические файлы, мультимедийные презентации, электронные дидактические средства, учебный материал.

THE USE OF MULTIMEDIA IN DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCIES IN NATIVE LANGUAGE CLASSES

Abstract. Today, effective use of information technology opportunities, improvement of educational efficiency, positive influence on students' ability to think independently is considered one of the urgent issues. In this article, the effective use of information technologies in the development of linguistic competences, the advantages of multimedia applications and the aspects of positive impact on the independent thinking ability of students, the possibilities of using playful forms of teaching and media technologies, the use of educational tasks in classes with multimedia with the help of tools, students are informed about the convenience of presentation, the practical working order of multimedia. Also, various forms of multimedia computer technology - text, graphics, picture, sound, animation, video and magnetic and optical disks, audio and videotape information usage features are given as examples of the topics and exercises given in the 5th grade "Native Language" textbook. In addition, effective results of multimedia technologies are revealed in the process of using electronic didactic tools such as internet services, internet resources, graphic files, multimedia presentations.

Key words: information technology, linguistic competence, multimedia, audio, video, text, graphics and animation, computer, storage, transmission, video data, independent thinking, exercise, internet service, graphic files, multimedia presentations, electronic didactic tools, educational material.

KIRISH. Ona tili darslarida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, bilim olishga bo'lgan rag'batini oshirish hamda nazariy tushunchalardan amaliyotda erkin fodalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirishi nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Shu sababli ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim bosqichlari uchun multimedia ishlanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, o'qitishning o'yinli shakllari va mediatexnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi qo'yilgan. Bu esa davr bilan hamnafas bugungi kun yoshlarining axborotlarni to'g'ri tanlash, ular orasidan muhimini saralab olish, tartibga solish yo'llarini izlash, axborotlar bilan ishlashga oid zamonaviy usullarni o'zlashtirishlariga zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Multimedia tushunchasi o'tgan asrning 90- yillari boshida hayotimizga kirib kelgan bo'lib, mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishgan. Multimedia bu informatika fanining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida

audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari yordamida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga qichqa vaqtda yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko‘rinishi hisoblanadi[1;46].

O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bevosita ilmiy-ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ilm-fan yutuqlaridan foydalanish orqali ta’lim oldiga qo‘yilgan vaziflarning optimal yechimlarini tanlay bilish va maqsadli qo‘llashni taqozo etadi. Bu borada multimedia vositalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tegishli natijani kafolatlaydi.

Ona tili ta’limida axborot texnologiyalarining ahamiyatini o‘rganar ekan metodist X.Bakiyeva shunday xulosaga keladi: “ommaviy axborot vositalari, turli rasmlar, o‘qituvchi nutqi, radioeshittirishlar, teleko‘rsatuvlar, axborot texnologiyalari va atrof-muhitni kuzatishda o‘quv materiali sifatida unumli foydalanish o‘quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirish, his-tuyg‘usini tarbiyalash, til hodisalarining xususiyatlarini anglatishda muhim o‘rin egallaydi”[2;75].

Ko‘p muhitlilik ma’nosini anglatuvchi multimedia (lotincha – ko‘p, vositachi bo‘lmoq) – kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasidir[3;47].

Multimedia kompyuter texnologiyasining turli xildagi fizik ko‘rinishiga ega bo‘lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo‘lganidek (magnit va optik disklar, audio va videolenta) axborotdan foydalanish bilan bog‘liq soha hisoblanadi. U foydalanuvchiga tovush va videoobrazlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Dars mashg‘ulotlarida o‘quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida o‘quvchilarga namoyish etish bir qadar qulayliklarni yaratadi. Chunki multimediali vositalar o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashga yordam beradi. Har bir o‘quvchilarni o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga chorlaydi.

Multimedianing amaliyotdagi ish tartibi – bu apparat-dasturiy muhit hisoblanib, kompyuterga axborotni kiritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va matn, chizmalar, videotasvir, tovush hamda nutqlarni insonga zarur va qulay holatda yetkazishdan iborat. Bu kabi jihatlar ona tili ta’lmi jarayonida ham o‘zining ijobiy samarasini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. “Ona tili” darsliklaridagi mavzularga doir multimediali dars ishlanmalari majmuasi shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmli ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko‘rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsa, ikkinchi tomondan ta’lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Natijada mavzuning o‘zlashtirilishiga yuqori darajadagi imkoniyat yaratiladi[5;82].

Darsliklarining multemediyali ilovalariga: animatsiya, video, harf va so‘z talaffuzi, lug‘at ustida ishlash, husnixat namunalari, test-topshiriqlari, didaktik o‘yin, multfilm, rasmli topshiriqlar, boshqotirmalarga namunalar keltirilgan. Ularda o‘quvchilarning til materiallarini oson o‘zlashtirishlarini, grammatik tahlilni sodda, aniq yo‘llari bilan amalga oshirishlari va ijodiy fikrlashga o‘rgatish maqsadida turli jadval va boshqotirmalardan foydalanildi. Mashq shartlarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, mulohaza yuritishga undovchi, taqqoslash, analiz, sintez va kuzatishga asoslangan holda xulosa chiqarishga yo‘llovchi, tahlilni muayyan izchillikda amalga oshirishni ta’minlovchi topshiriqlarni berilganligi dastur talablarini bajarishga xizmat qiladi.

Masalan, 5-sinf “Ona tili” darsligida 27-dars “Matn va lug‘atlar bilan ishlash”

mavzusidagi topshiriqda “Qutb yulduzi” matnini o‘qish tartibi berilgan. O‘quvchi matnni oddiy o‘qish orqali tushunmasligi mumkin. Shu sababli matnga doir videolavha namoyish etilsa, o‘quvchi topshiriqni va testlarni bajarishda qiynalmaydi[6;29].

Bu borada multimedia vositalarining afzalliklari va qulayliklari quyidagilar:

– rang-barang ko‘rinishdagi, katta hajmdagi axborot va ma’lumotlarni bitta diskda saqlash (bir necha bobdan iborat matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatli film va roliklarni hamda tovushli axborotlarni);

– yoritilayotgan tasvirlarni ekranda sifati saqlangan holda turli qismlarga ajratish orqali namoyish etish yoki ularning eng qiziq yoki muhim qismlarini kattalashtirish;

– chizmalar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, yoritish va ularning ko‘rsatkichlarini hisoblash, ilmiy yoki o‘rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish;

– mavzuga doir tasvirlarni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko‘rsatilayotgan axborotdan kalit so‘zlarni yoki tasvirning kerakli qismini bayon etishda zarur ma’lumotlarni ajratib olish;

– statik yoki dinamik tasvirga monand uzluksiz musiqa hamda boshqa audio ta’minotini olib borish;

– “stop-kadr” (kadrni to‘xtatish) ish tartibi asosida videoyozuvlar yoki undagi ayrim lavhalarga murojaat qilish;

– maxsus tarmoqqa ulanish, internet resurslaridan unumli foydalanish;

– grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash kabi bir qator imkoniyatlarning mavjud ekanligi. Shuningdek, tasvirning yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko‘rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo‘yish kabilarni ham ta’kidlash o‘rinlidir[4;15].

Multimedia vositalari asosida tashkil etiladigan darslarda o‘quvchilar o‘rganilayotgan tushunchalarga oid belgi-sifatlarni sezgi (ko‘rish, eshitish kabi) organlari yordamida idrok eta boshlaydi. Shu nuqtai nazardan yondashganda 5–6-sinf o‘quvchilari uchun tayyorlangan multimedia mahsulotlarida dastlab sodda xarakterdagi topshiriqlar qo‘yiladi. Buni 5-sinf “Ona tili” darsligidagi 52-mashqqa oid materialni yaratish algoritmi misolida ko‘rib chiqamiz. Mashqda Anvar Obidjon ijodiga mansub bir she’rdan parcha keltirilgan bo‘lib, she’rni o‘qish va undan undosh tovushlarni aniqlash topshirig‘i berilgan. Ta’kidlash joizki, darslikda vazifani bajarishga yo‘naltiruvchi ma’lumotlar yetarli emas. Shu bois muammoga doir multimedia mahsuloti quyidagi mazmunda shakllantiriladi:

– videomaterial monitorga chiqarilganda dastlab chap tomondagi qatorda she’rdagi so‘zlar aks etgan narsa-predmetlar ketma-ketlikda harakatlanib kelib, so‘ngra ma’lum tartibda joylashadi;

– harflarning rangi, kattaligi va titrlar tezligi (animatsiya) o‘quvchilarning yoshiga mos tushishi, sezgilariga salbiy ta’sir qilmasligi nazarda tutiladi;

– animatsiyalarning ekrandagi holati (markaz, turli tomonlar, ular orasidagi masofa, chegara) nisbati to‘g‘ri olinishi aniq-hisob qilinadi;


– matnga qo‘shilgan ovozning tembri, ritmi me’yorida bo‘lishi ta’minlanadi (o‘ta baland yoki past; sekin yoki tez bo‘lmasligi);

– she’r matnidan tanlab olingan biror so‘zdagi harf va tovushlar (masalan, *uxlagan* so‘zidagi *x, l, g, n* harflari)ga alohida urg‘u qaratiladi. Bunda so‘zlar qayta-qayta talaffuz qilinadi, yozilish qoidasi harakatlarda ifodalanadi;

– she’rning so‘z ustalari tomonidan o‘qilgan varianti musiqa jo‘rligida eshittiriladi, shunga monand videolavha namoyish etiladi;

– to‘g‘ri bajarilgan vazifalar “ofarin”, “barakalla”, “keyingi bosqichga muvaffaqiyat” kabi qarsaklar jo‘rligidagi olqishlar bilan rag‘batlantirilib yoki ogohlantirilib boriladi[5;79].

Bu kabi yondashuvlarning ahamiyati shundaki, o‘quvchilar material bilan tanishish bilan bir vaqtning o‘zida o‘rganilayotgan mavzuni multimedia komponentlari: video, audio, tasvir, matn, grafika, musiqa, bezaklar va animatsiya uyg‘unligida o‘zlashtiradi[7;54]. Multimedia texnologiyalarining samarasi internet-servislar, internet-resurslar, grafik fayllar, multimedia taqdimotlari kabi elektron-didaktik vositalarni qo‘llash jarayonida namoyon bo‘ladi. (2-rasm).



2-rasm. Multimedia texnologiyalari komponenti

O‘quvchilar tomonidan yozma nutqni o‘rganish mazmun-mundarijasidagi turli komponentlarning o‘zlashtirilishi u yoki bu elektron-didaktik vositalardan ustuvor foydalanishni taqozo qiladi. O‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalari bevosita axborot bilan ishlash orqali ham shakllantirilib boriladi. Bunda ona tili ta’limini mediamanbalar: televidenie, radio, kompyuter, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar, yangi rusumdagi telefonlar yordamida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda[5;85].

XULOSA. Videomateriallar bilan ishlashda tayanch so‘zlar va so‘z birikmalari bilan ishlash, shu asosda matnni tiklash, ijodiy matn yaratish, tuzilgan matnlar mazmuni ustida ishlash, tasvirlardagi milliy-madaniy xususiyatlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratish, tahlil qilish algoritmiga amal qilish lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berdi. Ko‘rinadiki, multimediali vositalarining komponentlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi: audio tinglab tushunish, video obrazlilikni tasavvur etish, animatsiya idrok etish kabi bilish jarayonlari rivojini ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonidagi bosh munosabat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatdir. An’anaviy ta’limdagi bog‘lanishlar qatoriga o‘qituvchi va darslik, o‘qituvchi va o‘quv materiali, o‘qituvchi va ko‘rgazmali qurol, o‘quvchi va darslik, o‘quvchi va o‘quv materiali, o‘quvchi va ko‘rgazmali qurol kabilar kirsa, kompyuterli ta’limda ularning shakli birmuncha o‘zgaradi. Demak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish o‘zaro fikr almashish va ijodiy faollikni ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi

.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalar vositasida tashkil etish: ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 2004. – 160 b.

2. Bakiyeva H.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutq va tafakkurini rivojlantirish metodikasi: Monografiya. – Toshkent, 2020. – 125 b.

3. Bikova O.P. Uchebnыe moduli dlya rabotы s vidematerialom // Russiy yazık za rubejom, 2009. – № 2. – S 2.

4. Vaughan Tay. Multimedia: Making It Work. Chapter 1: What Is Multimedia. 2011. ISBN: 978-0-07-174850-6/. – R. 15.

5. Kenjayeva M. 5-6-sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. // Ped.f.f.d.(PhD) disert. -Toshkent, 2021. 130 b.

6. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim mktablarining 5-sinfi uchun darslik – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 190 b.

7. Fayziyeva M., Sayfurov D. Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun “Virtual ta’lim texnologiyasi” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. – 155 b.